

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI O'QITISH METODLARI.

Abdunazarova Nazira Botir qizi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini qulay va oson tarzda o'qitishning zamonaviy metodlari haqida ma'lumot beradi. Bu jarayonda kichik yoshli bolalarda uchraydigan qiyinchiliklarni mahoratli pedagog sifatida tushunib, ularga innovativ usullar orqali ta'lim berishni nazarda tutadi va ushbu jarayonning qanday tashkillashtirilishi kerakligi haqida batafsil ma'lumot beradi. Umid qilamizki, ushbu maqola orqali pedagoglar yosh navnihollarimizga ommabop va samarali tarzda ingliz tilini o'rgatishadi.

Kalit so'zlar: rol ijro etish metodi, metod ,interaktiv darslar, savol-javob qilish orqali o'rgatish , oson grammatik darslar.

Annotation: This inclusive article provides the modern methods of teaching English to the young children with favorable and uncomplicated ways. As an experienced teacher, it recognizes the challenges faced by young students in this process and offers them cutting-edge teaching strategies, in addition to comprehensive guidance on how this procedure ought to be set up. With the help of this article, we intend to provide educators with a popular and efficient methods of teaching English to our young children.

Key words: role-play method, methods, interactive lessons, questionnaire method, easy grammar lessons

Аннотация. В этой инклюзивной статье представлены современные методы преподавания английского языка детям раннего возраста выгодным и несложным способом. Как опытный преподаватель, он осознает проблемы с которыми сталкиваются молодые ученики в этом процессе, и предлагает им передовые стратегии обучения в дополнение к исчерпывающим рекомендациям о том, как следует организовать эту процедуру. С помощью этой статьи мы намерены предоставить педагогам популярный и эффективный метод преподавания английского языка нашим маленьким детям.

Ключевые слова: метод ролевой игры, методика, интерактивные уроки, анкетный

So'nggi yillar ichida chet tillari, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish talab darajasiga chiqmoqda. Bunga sabab esa biz bilganimizdek, ingliz tili xalqaro til



hisoblanadi. Oldinlari til bilish alohida e'tirof etiladigan qobiliyat hisoblangan bo'lsa, hozir zaruratga aylanib ulgurdi, shuning uchun hozirda ota-onalar o'z farzandlarini chet tillari, asosan, ingliz tili o'rgatishga yo'naltirmoqdalar. Til o'rganish qancha erta boshlansa, shuncha til o'rganish ko'nikmasini egallash darajasi ortadi. Kichik yoshdagi bolalarda til o'rganishga bo'lgan moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir.

Bu faktorlarni hisobga olgan holda shuni bilib qo'yish kerakki, yosh navnihollarimiz, albatta, tilni o'zlaricha o'rganib ololmaydilar. Bu borada bizga mahoratli pedagoglar va dunyo standartlariga mos keladigan metodlar kerak bo'ladi. Shu o'rinda bizda savol tug'iladi: o'qituvchilar bolalarga qanday dars berishlari kerak? Bu jarayonni qanday tashkillashtirish kerak? Montessori akademiyasi tahlillariga ko'ra, bolaga ilk 3-4 yoshlik davrida ikkinchi til o'rgatish eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Sababi bu vaqtda bola ma'lumotlarni juda yaxshi o'zlashtiradi, shuningdek uning miyasi faol rivojlanayotgani sababli til o'rganish miya faoliyatini mustahkamlaydi. Avvalo, professor N.A. Bonkning fikriga ko'ra, yosh bolalarga xorijiy tilni o'rgatishda ularning psixologiyasini hisobga olish zarur, chunki yosh o'rganuvchi qiziqqon bo'ladi va zerikishni yoqtirmaydi. Shu bois kichik yoshdagi bolalarga yaqin bo'lgan mavzulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, bular o'yinchoqlar, hayvonlar, oila, uy, bog'cha, ranglar va hokazolar bo'lishi mumkin. Bolajonlarga biz til o'rgatayotganimizda bu jarayonni qiziqarli va interaktiv qilishimiz, ularning tezda zerikib qolib, ishtiyoqlari so'nmasligi uchun asosiy turtki bo'ladi, ya'ni biz darslarni o'yin faoliyati bilan bog'lab o'rgatishimiz kerak. Erta ta'lim jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga chet tilini chuqur o'rganishiga turtki bo'lib, kelajakda ular nutqining ravonligini ta'minlashga imkon beradi.

Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish pedagoglar uchun ancha mushkul va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Bu jarayonlarni effektiv va qiziqarli o'tkazish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ular bolalarga tilni mazmunli va esda qolarli tarzda o'rgatishlari uchun quyidagi usullardan foydalanishlari kerak:

-Bolalarga aqlan va jismonan foydali bo'lgan o'yinlardan foydalanish, ularga ertaklar aytib berish. Bu orqali ular ingliz tili muhitida bo'ladilar va bu jarayonda eshitib o'rganish asosiy omil bo'lib qolaveradi. Bunda, asosan, pedagoglar rasmi hikoyalarni, ertaklarni tanlasalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

-Inglizcha multfilmlar qo'yib berish. Bolalar bu kabi multfilmlarni ko'rish davomida ularga to'liq tushunmasliklari mumkin, ammo multfilm qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ular foydalanayotgan so'zlarni tushinishga va tasavvur



qilishga intiladilar. Bu jarayon esa bolaning miya faoliyati rivojlanishiga ham yordam beradi.

-Mavzuga oid inglizcha qo'shiqlar qo'yib berish. Masalan, raqamlar mavzusini o'tayotganda xuddi shu mavzuga oid qo'shiq qo'yib bersak, bola bilan birga harakatlarni takrorlab va bolaga do'stona muhit yaratib bera olsak, ular qiyinchiliklarsiz mavzuga kirishib keta oladilar.

-Ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali o'rgatish. Agar o'qituvchilar o'tayotgan mavzulariga mos bo'lgan atmosferani yarata olsalar, ya'ni "travelling", "cooking", "sport", yoki "fruits" kabi shunga o'xshash mavzular bo'lsa, shu mavzuga oid rasmlar yoki jihozlar olib kelinishi kerak. "Cooking" mavzusini oladigan bo'lsak, bunda o'qituvchi idish-ovoqlar yoki mahsulotlarning kichik modellarini olib kelsa, jarayon yanada effektiv bo'ladi.

-Rol ijro etish (role play) yoki pantomima orqali. Pedagog so'zlarni o'zi yoki biror o'quvchi tomonidan harakatlar orqali ko'rsatganda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni topishga harakat qilsalar, bu xotiraga mustahkam o'rnashadi va yillar davomida ham toshga o'yilgan naqshdek bo'lib turaveradi.

-O'tgan mavzularni takrorlatish; Aynan savol-javob metodi eng foydali usul desak, mubolag'a bo'lmaydi. Abu Rayhon Beruniy aytganidek, bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

-Bolalar orasida sog'lom raqobatni tashkillashtirish; Raqobat har sohada ish beradigan usul hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilari orasida sog'lom raqobatni yarata olsa, marra uniki bo'ladi, chunki kichkina bolalar qiziqqon bo'ladi va bir-birlariga qiziqib bilimlarini rivojlantiradilar. Musobaqa atmosferasi ularga energiya beradi.

-Rag'batlantirish. Bolalarni rag'batlantirish, ularni vaqti-vaqti bilan maqtab turish, kichik-kichik sovg'alar berish ularning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, bir bola bitta savolga to'g'ri javob bersa, kichkina shokolad berish ham kelgusida uning til o'rganishga bo'lgan intilishini ortishiga sabab bo'ladi. Eng yaxshi javob berib kelayotgan o'quvchining ota-onasiga yoki o'ziga maqtov yorliqlari berilsa, u yanada jadal harakat qilaveradi.

-Kichik-kichik matnlar yod oldirish. Bu orqali bolaning xotirasi ham mustahkamlanadi, bundan tashqari talaffuzi (pronunciation) xuddi inglizlarniki kabi shakllanib boraveradi.

Bundan tashqari shuni unutmasligimiz lozimki, til o'rganish davomida uning poydevori uning grammatikasi hisoblanadi, albatta. Shuning uchun yosh, endi yetilib kelayotgan avlodga ingliz tili grammatikasidan fundamental bilimlar berib borilishi kerak. Ammo bu jarayon ularga qiyinchilik tug'dirmasligi, ularning medasiga tegib



qolmasligi uchun pedagoglar mahorat bilan yondashishlari kerak. Kichik yoshdagi bolalar grammatikani majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli, yoqimli va tabiiy kundalik mashg'ulot sifatida o'rganishlari lozim. Yana bir asosiy omil qanday o'quv qo'llanmalarini tanlay olishlikdir. Quyida bir qancha ingliz tilini, uning grammatikasini oson tarzda o'rgatishga yordam beradigan qo'llanmalar sanab o'tilgan.

1.Round Up. Virgina Evans va Jenny Dooley tomonidan ishlab chiqilgan grammatik kitob. Boshlang'ich (starter) darajadan murakkab darajagacha bo'lgan yo'lda 7 kitobdan iborat majmua bo'lib, unda pedagog kichkina bolaga rasmlari, oson qoidalari va qiziqarli mustahkamlovchi mashqlari bilan bosqichma bosqich dars berib boradi.

2.Bolalar uchun ingliz tili. Valentina Ivanovna Skultening ushbu ommabop kitobi ingliz tilini tez va oson o'zlashtirishni istagan bolalar uchun bebaho qo'llanmadir. Metodik ko'rsatmalar va kalitlar bilan to'ldirilgan ushbu metodik kitob ingliz tilini o'rgatuvchilarga qulay mashg'ulot olib borish imkonini beradi. Undagi so'zlarni hamda matnlarni ham yod oldirish mumkin.

3.Grammarway. Bu kitob ham Virgina Evans hamda Jenny Dooleylar qalamiga mansub hisoblanib, asosan 6 ta kitobning hammasi ham emas, birinchi va ikkinchilari ko'proq tavsiya etiladi, chunki qolgan kitoblari kichik yoshdagi bolalar uchun bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. O'qituvchilar bu jihatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmasliklari talab etiladi.

4.Essential 4000 Words. Paul Nation yaratgan kitob, 6 ta qismdan iborat bo'lib, boshlang'ich darajadan yuqori darajagacha bo'lgan o'rganuvchilarning lug'at boyligini oshirishga mo'ljallangan kitobdir. Ushbu qismlar ingliz tilida og'zaki va yozma nutqda ishlatiladigan keng miqyosdagi so'zlar jamlanmasini o'zida mujassam etgan. Har bir mavzu uchun birlashtirilgan "QR kod" orqali so'zlarni va ular ishtirokidagi gaplarning audio shaklini ham tinglash mumkin. Bu qo'llanmaning ham boshlang'ich darajalari foydalidir.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda zamon talablariga javob beradigan metodlar yaratish, ularni targ'ib qilish zaruriyat darajasiga chiqdi. N.V.Karpov va I.V.Raxmanovlarning "Boshlang'ich bosqichda chet tilini o'qitish metodikasi" kitobi nashrdan chiqdi va bu kitobda yosh bolalarga chet tilini o'qitishda texnik vositalardan keng foydalanish kerakligi haqida aytiladi. Jumladan, Duolingo ilovasini ham effektiv dastur desak bo'ladi, sababi bu ilova ham bosqichma bosqich yo'naltiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, kichik yoshdagi bolalarga chet tillari, xususan, ingliz tilini o'rgatish murakkab va mas'uliyatli jarayon, yoki kasb desak



ham bo'ladi,lekin afzallik jihatlari shundaki,ular qiziqqon va xotirasi yaxshiligi sababli,agar padagoglarimiz mahorat bilan interaktiv tarzda dars jarayonlarini olib borsalar,maqsadlariga oson erishadilar.Axir xalqimiz bekorga yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqsh, deb aytishmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Skulte, Valentina Ivanovna,Bolalar uchun ingliz tili:2qismli o'quv qo'llanma: Uslubiy ko'rsatma va javoblar /Valentina Ivanovna Skulte;-Toshkent :ART FLEX, 2012.-880 b.

[2]Дули Дж., Эванс В. Grammarway 1:Практическое пособие по грамматике английского языка / Пер. с англ. Г.И. Бардиной; под ред. О.В. Афанасьевой. М .:ЦентрКом,2003.144 с.:илл.

[3] 4000 Essential English Words with Uzbek translations-1 [Matn]: lug'at /Paul Nation.-Toshkent :Pir ,2021 .-192 b.

[4]Round-up-1/Virginia. E., Dooley. J. Pearson Education Limited.2010/ China.

